

Ilmiy rahbar:

Abduvohidov Ahliddin Abdumutalib o'g'li

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi 1-bosqich talabasi

Abduvohidova Mahliyo Abdumutalib qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: . *Zulfiya she'riyatining nufuzi – bizning dabdabali murakkab davrimizning haqqoniy ifodasi, o'ziga xosligi, zamondoshlarimizning qalbi va harakatlarining yorqin tasviridadir. , Sharq ayolining jamiyatdagi teng huquqi uchun mardonavar kurashgan ayol.*

Kalit so'zlar:*Sharq ayoli,"Hayot varaqlari","Bahor keldi seni so'roqlab",Xalqaro Javohirlal Neru mukofoti,"Nilufar"mukofoti,"Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh".*

Zulfiya Isroilova – taniqli va iqtidorli o'zbek shoirasi. Yorqin rassom, oddiy inson qalbini o'tkir his qilgan – mehnatkash, Sharq ayolining jamiyatdagi teng huquqi uchun mardonavar kurashgan ayol. Zulfiya she'riyatining nufuzi – bizning dabdabali murakkab davrimizning haqqoniy ifodasi, o'ziga xosligi, zamondoshlarimizning qalbi va harakatlarining yorqin tasviridadir. O'zbek xalqining atoqli va ardoqli vakili, taniqli jamoat arbobi, xalqaro tinchlik uchun kurash jarchisi Zulfiya Isroilova xalqaro “Nilufar”, Javoharlal Neru nomidagi hamda Davlat mukofatlari sohibasidir. Zulfiyaxonim Isroilova 1915-yili Toshkent shahrining qadimiy Degrez mahallasida tavallud topgan. Avval boshlang'ich maktabda, so'ng xotin – qizlar bilim yurtida tahsil olgan. 1935-1938-yillarda O'zbekiston fanlar akademiyasining til va adabiyot instituti aspiranturasida o'qigan. Shundan keyin turli nashriyotlarda ishlagan. 1935-yildan 1980-yilgacha, qariyb o'ttiz tilga yaqin respublikamizda keng tarqalgan “Saodat” nomli xotin – qizlar jurnalida bosh muharrir bo'lgan. Zulfiyaxonim Isroilova Hamid Olimjon bilan turmush qurgan. Biroq ular orzularga to'la hayot kechirayotgan pallada 1944-yili mashina halokati tufayli turmush o'rtog'idan ayrildi. Shoira esa 1996-yilda 81-yoshida vafot etadi. Shoira badiiy ijodga juda erta kirishdi. O'n yetti yoshida “Hayot varaqalari” deb atalmish dastlabki she'riy kitobini chop ettirdi. Uzoq ijodiy umri davomida o'ttizga yaqin she'riy to'plamlar, o'ndan ortiq dostonlar yaratdi. Shoira hammani o'ylatadigan, barcha kishilarga Jaxldor bo'lgan holatlarni she'rga soladi. Shuning uchun ham yozganlari ko'pchilikka manzur bo'ladi. Zulfiyaning ulkan iste'dodi faqat yurtimizdagina emas balki dunyo miqyosida ham e'tirof etilgan. U – xalqaro “Nilufar” mukofoti egasi

Mevaning toti u yetishgan og'ochga qanchalik bog'liq bo'lsa, ijodkorning bitganlari uning shaxsiyatiga ham shunchalik aloqadordir. Sobiq sho'ro davridagi ijodkorlar orasida Zulfiya she'riyati shu jihatdan, ayniqsa, ajralib turadi. Uning nozik chizgilar, go'zal tashbihlar bilan bir vaqtda “inson ruhiyatini g'ajib tashlay oladigan” ayriliqdan tug'ilgan tiyiqsiz iztirob, taqdirning notantiligiga po'rtanavor isyon aks etgan lirikasi shoira shaxsiyati va ruhiyatidagi inja manzaralardir, deyish mumkin.

Zulfiya ijodida hijron, sadoqat to'g'risidagi she'rlar salmoqli o'rin egallaydi. Bu – tabiiy hol. Negaki, u o'zining ikki kishi uchun yashalgan uzoq umri davomida ayriliqning ellik ikki yillik yo'lini bosib o'tib, hijron kuychisi va sadoqat timsoliga aylandi. Shoiraning nihoyasiz ayriliqning hasratlari aks etgan she'rlarida badbinlik, umidsizlik, noshukurlik, so'ngsiz qayg'uga asirlik tuyg'ulari yo'q. Uning hijronzada she'rlarida suyguvchi, suygani bois ayriliqdan qattiq kuyluvchi, ammo hayotdagi yorug'liklarni ko'ra olguvchi va ko'rganiga shukronalik qilguvchi shokira ayol sezimlari aks etgan.

Zulfiyaning mashhur “Bahor keldi seni so'roqlab” asarida uning hijron mavzusidagi barcha boshqa she'rlaridagi kabi kuchli dard, chegarasiz hijron aks etgan. Ulkan insoniy alam, o'kinchning she'rga yo'g'rilgan samimiy ifodasi she'rxonning ko'nglini titratadi. Chunki titragan ko'ngilning manzarasi o'qirman ruhiyati va hissiyotini ham titratishi tayin. She'rda ifoda etilgan shoira, bahor, yel timsollarining bari sog'inch dardiga muhtalo. Ularning uchalasi ham o'rik gullariga maftun bo'lib, bahor yellarini “baxtim bormi deya” so'roqqa tutgan, shoiranida, bahornida, yelnida yaxshi ko'rgan jingala sochli xayolchan yigit Hamid Olimjonni birday sog'inishgan. Bu dard uch qayg'ukashni bir-biriga yaqinlashtiradi, ularni bir-birini suyashga, bir-birini tuyishga undaydi.

Birinchi to'rtlik mazmun-mohiyati bilan she'rga kirish vazifasini o'taydi. Lirik qahramonning atrofidagi hamma narsa bahor qaytib kelganidan darak beradi. Tabiat marhamatli, unda fasllar aylanib kelaveradi. Ko'klam go'zalligiga burkangan olam – to'kis. Unda bultur bor bo'lgan narsalarning deyarli barchasi bu yil ham mavjud. Lekin lirik qahramon, bahorning o'zi va sarin yel uchun olam to'kis emas. Ular kimnidir qo'msaydi, qidiradi, topgisi keladi.

Shoiraning ayriliq ifodasi bo'lmish yana bir she'ri “Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh” deb ataladi. She'rning birinchi bandida gul berishning ikki shakli tasvir etilgan. Oldin oshiq lirik qahramon – ma'shuqaga gul keltirgan bo'lsa, o'lim ularning o'rnini almashtiradi. Lirik qahramonning: “Endi har chog' men eltaman gul”, – degan hasrati sababi shunda.

Zulfiyaning hijron lirikasida unga hamisha tabiat hamdard. Bu holat she'rning ikkinchi bandida yaqqol aks etgan:

Keldim. Uzoq qoldim men sokin,

Sening aziz boshingda yolg'iz.

Osmon tiniq edi va, lokin

Parcha bulut yetib keldi tez.

Lirik qahramonning tuyg'ulari – pokiza. U biladi hijron azobli, tirik turib ayrilish har nedan qiyin, lekin sevgan kishisining hayoti uchun har qanday azobga-da tayyor: “Bilardim, qaydadir olasan nafas”. Shoira tuyg'ular tasviri maromini buzmaydi. Lirik qahramon sevgisi rad etilgan har qanday ayol singari: “Bilaman, rashk meni etardi halok, Afzal ko'rganingni qarg'ab o'tardim”, – degan so'zlari bilan o'zining bir ayol sifatidagi asl tuyg'ularini ochiq aytadi. Jonidan ortiq yaxshi ko'rgan kishisining qandaydir boshqa birov bilan qaydadir nafas olishini his qilish qahramon uchun oson emas. Garchand, u bugunga kelib, qaytarilmas

yo'qotishlar qarshisida shunga ham rozi esada. Shu bois u nega tirikligingda tashlab keta qolmading, ayriliqni kechirish osonroq bo'larmidi deb iddao qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Qozoqboy Yo'ldosh maqolasi asosida
- 2.Internet ma'lumotlari va saytlaridan foydalanildi:
- 3.[www.kutubxona .uz](http://www.kutubxona.uz)
- 4.www.wikipediya.uz